

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

IYUL, 2025-YIL





# O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

**ISBN 978-9910-09-222-0**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 10-iyul

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarini birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

**ISBN 978-9910-09-222-0**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*G`ulomov Ibrohim*

MANG`IT NA'MOYONIDAN OLINGAN NIOBIY VA TANTAL SAQLAGAN MA'DANLARNI  
BOYITISH..... 4-10

### TARIX FANLARI

*Xolova Umida, Jalolova Zarina*

MA'RIFATPARVARLIK RUHI VA AYOL OBRAZINING YUKSALISHI: DILSHODI BARNO  
NIGOHIDA ..... 11-14

*Sobirov Sardorbek*

YETTISHAHAR DAVLATI ASOSCHISI YOQUBBEK BADAVLAT FAOLIYATIGA  
BIR NAZAR..... 15-19

### FALSAFA FANLARI

*Mamadiyarova Malika*

OILAVIY QADRIYATLARNING AXLOQIY XUSUSIYATI..... 20-22

### FILOLOGIYA FANLARI

*Xudoynazarova O'g'lonoy*

TIBBIY DISKURSDA DINIY BARQAROR BIRIKMALAR ..... 23-25

*Abdukaxarova Gulnoza*

O'ZBEK TILIDA IQTISODIY ANGLISIZMLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR  
ETUVCHI OMILLAR ..... 26-28

Mustafayev Ozod

O'ZBEKİSTONDA "RAQAMLI (INTERAKTIV) ADABIYOT" MUHİTİNİNG SHAKLLANISHI VA  
ADABIY ASARLARNING ONLAYN PLATFÖRMALARDAGI EVOLUTSIYASI ..... 29-32

### YURIDIK FANLARI

*Allambergenova Farida*

ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HIMoya QILISHDA ROMAN-GERMAN VA ANGLO-SAKSON  
HUQUQIY TİZIMLARIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR ..... 33-40

### PEDAGOGIKA FANLARI

*Rasulov Erkin*

KOGNITIV HAMDA METAKOGNITIV FAOLIYATLAR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK VA ULARNI  
RIVOJLANTIRISH USULLARI ..... 41-45

### PSIXOLOGIYA FANLARI

*Smetova Gulzar*

TIBBIYOT XODIMI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BİLİMLARNING AHAMIYATI..... 46-48

## FILOLOGIYA FANLARI

### TIBBIY DISKURSDA DINIY BARQAROR BIRIKMALAR

**Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna**

Termiz davlat universiteti 3-bosqich (DSc) doktoranti

Tel: +998904196085

E-mail: [uglonoy@yahoo.com](mailto:uglonoy@yahoo.com)

Orcid: 0009-0003-6624-9511

Termiz, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tibbiy diskursning lingvopragmatik xususiyatlari hamda unda qo'llaniladigan diniy barqaror birikmalar (DBB)ning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tibbiy diskurs — inson salomatligi, tashxis qo'yish, davolash va bemor bilan muloqot jarayonidagi kasbiy til shakli sifatida tavsiflanadi. Unda ishlataladigan "Alloh shifo bersin", "Xudo yor bo'sin", "InshaAllah tuzalasiz", kabi diniy frazeologizmlar bemorga ruhan tasallli berish, umid uyg'otish va ruhiy barqarorlikni ta'minlash funksiyalarini bajaradi. Maqolada bunday birikmalarning madaniy-an'anaviy ildizlari, ularning kommunikativ va psixologik-ta'sirchanlik darajasi, shuningdek, ijtimoiy muhiddagi aks sadosi ilmiy yondashuv asosida o'rganiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tibbiyot sohasidagi mutaxassislar tomonidan diniy ifodalarning ehtiyojkorlik bilan qo'llanishi bemorlar bilan ishonchli, samimiy va ta'sirli muloqotni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tibbiy diskurs, diniy barqaror birikmalar, pragmatika, kommunikatsiya, tasalli, madaniy kontekst.

## RELIGIOUS FIXED EXPRESSIONS IN MEDICAL DISCOURSE

**Khudoynazarova Uglonoy Allamurodovna**

3rd course (DSc) doctoral student of

Termiz State University

**Annotation.** This article analyzes the linguo-pragmatic features of medical discourse and the role and significance of religious fixed expressions (RFEs) used within it. Medical discourse is described as a professional language form employed in contexts involving human health, diagnosis, treatment, and patient interaction. Religious phraseologisms such as "May Allah grant you healing," "God be with you," and "InshaAllah, you will recover" serve functions of offering spiritual comfort, instilling hope, and maintaining emotional stability for the patient. The article explores the cultural-traditional roots of these expressions, their communicative and psychological impact, and their reflection in the social environment through a scientific approach. The analysis shows that the careful use of religious expressions by medical professionals plays a crucial role in fostering trustful, sincere, and effective communication with patients.

**Key words:** medical discourse, religious fixed expressions, pragmatics, communication, consolation, cultural context.

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-222-0/uzb-05>

### **Kirish.**

Tibbiy diskurs, ya'ni kasbiy so'zlashuv tizimi, inson salomatligini saqlash, davolash va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish jarayonida shifokorlar, bemorlar va ularning yaqinlari o'rtasidagi muloqotni ifodalaydi. U tibbiy terminologiya, diagnostik va terapeutik nutq uslublari, shuningdek, psixologik va ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan ekspressiv biriklarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan tibbiy diskurs doirasida diniy barqaror birikmalarning ishtiroki bemorning

ruhiy holatini yengillashtirish, unga dalda berish, umid uyg'otish va ijobiy psixologik muhit yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

G.Babaeva tibbiy diskursni "tibbiy matn bo'lib, kasallik, uning diagnostikasi, davolash, profilaktika choralar haqidagi nashrlar" deb ta'riflaydi. Tilshunos L. S. Beylinson esa uni 10 ga yaqin janrga ajratadi: diagnostik maslahat, bemorning shikoyati, anamnez, obyektiv tibbiy ko'rik natijalari, tibbiy konsilium, og'zaki da'volash, tibbiy tavsiyanoma, retsept, ma'lumotnoma va epikriz. Biroq zamonaviy amaliyotda ushbu janrlarga diniy mazmundagi so'zlashuv shakllari ham qo'shilgan bo'lib, ular asosan bemor va uning yaqinlari bilan muloqotda namoyon bo'ladi.

Masalan, "Dardini bergen Alloh, shifosini ham beradi" kabi tasalli so'zları nafaqat diniy e'tiqodning aksidir, balki u shifobaxsh kuchga ega emotsiyal va psixologik vosita sifatida ham xizmat qiladi. Bu kabi diniy frazeologik birliklar tibbiyot deontologiyasi – bemor bilan etik asosda muloqot qilish mezonlariga mos keladi. Ular bemorni nafaqat jismonan, balki ruhan davolashga xizmat qiladi.

Ingliz tilida ham shunga o'xshash diniy birliklar keng qo'llaniladi: "Sickness is God's tool" (Kasallik Xudoning quroli), "Pain is always the thoughtful prescription of the divine physician" (Og'riq ilohiy tabibning o'ylangan retseptidir), "God is in control" (Hammasi Xudoning nazoratida) va h.k. Bu iboralar shifokorlar, ruhoniylar yoki yaqinlar tomonidan bemorlarga aytiladi va bemorning kasallikni boshqacha – diniy kontekstdan anglashiga yordam beradi. Ayniqsa, "This is my cross and I have just got to bear it" (Bu mening xochim, uni ko'tarishga majburman) iborasi xristian dinidagi Iso Masihnинг azoblari bilan o'zini qiyoslagan bemorning ruhiy holatini aks ettiradi.

Tibbiy diskursda diniy birliklar quyidagi kommunikativ funktsiyalarni bajaradi:

- Tasalli berish: "God will heal you", "Allohning o'zi yordam beradi";
- Umid uyg'otish: "God restores you good health", "Inshallah, tuzalib ketasiz";
- Ruhiy tayanch vazifasini bajarish: "God is your helper", "Alloh siz bilan";
- Bemor bilan ijtimoiy aloqani mustahkamlash: "God be with you", "Allohga omonatsiz";
- Ijtimoiy-madaniy identifikasiya: "Shifo-Allohdan", "Har dardning shifosi bor" (hadis asosidagi birlik).

Bunday birliklar ko'pincha ijtimoiy kontekstda dialogik xarakter kasb etadi. Masalan, bemor va shifokor yoki bemorning yaqinlari o'rtasidagi muloqotda diniy birikmalar vositasida muloqot ijtimoiy konnotatsiyalar bilan boyitiladi. Bu yerda intertekstuallik ham muhim ahamiyatga ega: hadis, Qur'on oyatlari, Injil matnlari yoki diniy do'stona maslahatlar zamirida mavjud bo'lgan tarixiy-madaniy qatlamaqta ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, surunkali kasalliklar yoki saraton kabi og'ir tashxislarda diniy birliklar bemorning ruhiyatini ko'tarishga, uni ijtimoiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Masalan: "God has a plan for my life" iborasi orqali bemor o'z kasalligini ilohiy sinov sifatida qabul qiladi. Britaniyada o'tkazilgan tadqiqotlarda bu kabi iboralarning terapevtik effekti kuzatilgan.

### **Muhokama va natijalar.**

Tibbiy diskursda diniy barqaror birliklar bemorlar tomonidan o'z e'tiqodiga asoslangan holda tez-tez qo'llaniladi va ular shifokorlar tomonidan ham ehtiyyotkorlik bilan ishlataladi. Shifokor bemorning diniy dunyoqarashini inobatga olgan holda unga murojaat qilsa, bu

ishonchli muloqotga olib keladi. Masalan, "Alloh sizni asrasin", "Sizni duo qilamiz" yoki "Xudo yordam bersin" kabi iboralar ko'pincha bemor tomonidan iliq qabul qilinadi.

**Xulosa qilib aytganda**, tibbiy diskursdagi diniy barqaror birliklar nafaqat stilistik bezak, balki bemor va shifokor o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi, sog'ayish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi, psixologik va kommunikativ ahamiyatga ega bo'lgan muhim pragmatik vositalardir. Ular o'zbek va ingliz tillarida o'ziga xos madaniy-diniy konnotatsiyalarga ega bo'lib, zamonaviy tibbiyot kommunikatsiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Бейлинсон Л.С. Характеристики медико-педагогического дискурса (на материале логопедических рекомендаций): дис. ... канд. филол. наук: 10.02.01/Любовь Семеновна Бейлинсон. –Волгоград, 2001. –177 с.
2. De Weert D.J. The sick person and Science: The role of religion in medicine and modernity. – Illinois Wesleyan University, 2011. – p.63. (Honors Projects).
3. Foley R.L., Sr. A theology of thickness : Conference paper / The Bronx health reach pastor`s breakfast conference. – New York, 2006. – p.13
4. Bardin L. Análise de conteúdo. –São Paulo: Edições 70, 2016. –141 p.
5. Lavorato-Neto G., Rodrigues L., Turato E.R., Campos C.J.C. The free spirit: spiritualism meanings by a nursing team on psychiatry //Rev. Bras. Enferm. – 2018. – T. 71, № 2. – P. 280 –288. – DOI:10.1590/0034-7167-2016-0428
6. Kaddourah B., Abu-Shaheen A., Al-Tanir M. Nurse's perceptions of spirituality and spiritual care at five tertiary care hospitals in Riyadh, Saudi Arabia: a cross-sectional study // Oman Medical Journal. – 2018. – T. 33, № 2. – P. 156. – DOI:10.5001/omj.. 2018.28
7. Alms, R. Religion in the doctor-patient relationship: cultural competence and cultural humility: A Master's thesis. – May, 2014. – p.58

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 10-iyul

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 10-iyul

**ISBN 978-9910-09-222-0**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.